

YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD VA MILLIY QADRIYATLARIMIZ MUSTAHKAMLIGI

Abdullayeva Umrinisa

*Toshkent viloyati Parkent tumani sport
maktabi Taekwondo murabbiyi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun yoshlari va ular har sohada erishayotgan yutuqlari hamda milliy qadriyatlarimiz mustahkam bo'lishi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Vatan, ma'naviyat, jamiyat, taraqqiyot, kelajak, milliy urf-odat, qadriyatlar.

1. Dolzarbligi: Bugun hayotimizda yoshlarning kuchli bilm olishi, har tomonlama yetuk bo'lishi zuda zarur. Chunki, millatning ertasi bo'lgan yoshlar bunday katta ma'suliyatning qanday muhim ekanligini anglashlari lozim. Millatning kelajak yoshlari har sohada katta maydonlarda O'zbekiston nomini har sohada yaxshi natijalari bilan himoya qila olmog'i lozim. Bugungi kun O'zbekiston taqdirida Uchinchi Renessans davridir. Bu davrda ko'p kamchiliklar bartaraf etilib yangi-yangi g'oyalarni amalga oshirish muhim bo'lgan kundamiz. Har qanday jamiyatning iqboli va istiqboli yosh avlodga bo'lgan e'tiborga bog'liqligi ayondir. Prezidentimiz faoliyati va qarashlarining muhim yo'nalishi ham shunga qaratilgani bejiz emas. Kelajakning bunyodkori, ertangi kunning hal qiluvchi kuchi-yoshlarga munosabat masalasi davlatning ustuvor siyosatiga aylangani rost. Yoshlar borasidagi siyosat ta'limning uzluksiz tarbiyaga ham yo'naltirilgani e'tiborlidir. Prezidentimiz yoshlarga ishonch bildirish asnosida yurtimizda iqtidorga, liderlik salohiyatiga ega yoshlar ko'pligi uchun ham mamlakatimizda uchinchi renessans davriga zamin borligini ro'yi rost e'tirof etadilar. Erishilayotgan yutuqlarimiz ko'p, lekin ular hali yetarli emas. Davlat rahbari yoshlar bilan uchrashuvda aytganidek, yoshlarimiz zamonaviy bilim va taraqqiyot cho'qqilarini egallab, o'z ma'naviyati va tafakkuri bilan barchaga ibrat hamda namuna bo'lishi kerak. Buning uchun ular vatan ravnaqini o'z hayotining mazmuni deb bilishlari, yoshlik umrning beg'ubor, ulkan orzu-umidlar va imkoniyatlar davri ekanini teran his etishlari lozim. Shu o'rinda ma'rifatparvar adibimizning so'zlari yodimga tushdi. «Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir», bu so'zlarni bekorga aytmaganlar. So'zimizni renessans so'zining ma'nosi nima ekanligini bilishdan davom ettirsak. Forobiyning fikricha insonning va jamoatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka ko'tarilishi inson va jamoaning o'z qo'lidadir. U davlatni fozil va johil davlatlarga bo'ladi. Fazilatli shaharlarda ilm-fan, falsafa, axloq-ma'rifat birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim deb biladi. Shunda jamiyat yetuklikka erishadi. Fozil shahar

boshlig'i bilimli, haqiqatni sevuvchi, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qarashi, adolatni yaxshi ko'ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi kerak deb aytadi. Forobiy insonni kamoloti uchun xizmat qilgan, hayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb kishilarni undan ogohlantiradi. So'zim o'rnida joiz bo'lganda yoshlarimizni milliy qadriyat va an'alarimiz bilan ham yaqindan tanishtirishimiz shu ruhda ulg'aytirishimiz kerak degan fikrga keldim. Chunki bu bizga ota bobolarimizdan me'ros qadriyatlar demakdir. U o'zligimiz va ertamizni anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Milliylik, odamiylik, yaxshiliklar bularning barchasi O'zbek qadriyatlar negizidir. Milliy g'oya vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda Uchinchi Renessans g'oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi. Inson-yangi Renessans ijodkori hisoblanadi. Ta'lim, madaniyat, ilm-fan sohalarida qanday ko'rsatkichlarni, marralarni zabt etamiz. Kelajakning bunyodkorlari albatta biz yoshlarmiz. Bugun bunday yoshlar talaygina shulardan birgina misol qiladigan bo'lsak, Nodirbek Abdusattorovdir. U shaxmat tarixida rapid yo'nalishida Jahon chempioni bo'lgan eng yosh shaxmatchi sifatida tarixga kirdi.

Natijalar: Ze'ro, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyatining dastlabki davridanoq xalqimiz sog'ligi uchun qayg'urish vazifasini- Yangi O'zbekistonni bunyod etishning birlamchi omil sifatida kun tartibiga qo'ydi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, xalq sog'ligi-eng muhim mezon, chunki aholisi sog'-salomat va bilimli davlatgina yangi Renessansga asos solishga qodir bo'ladi. Ko'rib turibmizki, barcha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar va islohotlar shu yurt uchun, shu xalq uchun ekanligini anglamoqdamiz. Buni erishilayotgan yutuqlardan va xalq shukridan ham bilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugun katta yo'lga chiqqan O'zbekistonning oldiga qo'ygan maqsadlari juda kattadir. Albatta mu maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha birde yelkama-yelka bo'lib harakat qilish zarurdir. Chunki, kuch birlikda. Har jabhada odimlashimiz va tinch farovon yashashimiz uchun qo'lni-qo'lga bermog'imiz kerak. Shunda bugungidan ham yutuqlarga va osoyishta kunlarga yetishamiz. Dunyo bizni yanada tan oladi va tan berishi shubhasizdir.

FOYDALANILGN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Sh. Mirziyoyev. «Yangi O'zbekiston Strategiyasi». 2021-yil
2. Sh.Sh. Mirziyoyev « Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz».
3. I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas-kuch». 2008-yil.
4. V. Qo'chqorov , O. Mahmudov, Z. Zamonov.-Ikkinchi nashr.-Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018.-144 b.
5. A. Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi. Toshkent-2017.

